IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 23. Issue 02. Sentabr, 2026

MAKTABGACHA TA`LIM YO`NALISHI TALABALARINING MEDIAKOMPITENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDALANILADIGAN RAQAMLI-PEDAGOGIK METODLAR

Tavobova Ozoda Farhodovna
Termiz davlat pedagogika instituti 1-kurs
tayanch doktaranti
E.mail: tavobovaozoda22@gmail.com
ORCID: 0009-0000-9911-0346
https://doi.org/10.5281/zenodo.22983009

Annotatsiya: Maskur maqolada maktabgacha ta`lim yo`nalishi talabalarining mediakompetentligini shakllantirishda raqamli-pedagogik metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy imkoniyatlarini aniqlash hamda samarali metodik yondashuvlarni asoslash haqida so`z yuritiladi. O`tkazilgan tadqiqot natijalaridan bo`lajak tarbiyachilar media olamdagi faoliyatini samarali va to`g`ri yo`lga qo`yish imkoniyatlarini kengaytirishi hamda undan tizimli foydalanishlari mumkin.
Kalit so`zlar: Mediakompetentlik, axborot-tahliliy metodlar, interaktiv, refleksiv, gamifikatsion

Аннотация: В статье речь пойдет о выявлении теоретических и практических возможностей использования цифровых педагогических методов в формировании медиакомпетентности учащихся дошкольного образовательного направления и обосновании эффективных методических подходов. Результаты проведенного исследования позволяют будущим педагогам расширить свои возможности для эффективного и правильного функционирования в медиа-мире, а также систематически использовать его.
Ключевые слова: Медиакомпетентность, информационно-аналитические методы, интерактивность, рефлексивность, геймификация

Abstract: This article discusses the theoretical and practical possibilities of using digital-pedagogical methods in the formation of media competence of students of the preschool education program, as well as the justification of effective methodological approaches. Based on the results of the study, future educators can expand their opportunities to effectively and correctly organize their activities in the media world and use it systematically.
Keywords: Media competence, information and analytical methods, interactive, reflexive, gamification

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida O`zbekiston talim tizimida raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish dolzarb vazifaga aylangan. Ayniqsa, bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ularda nafaqat pedagogik bilim va ko‘nikmalarni, balki media hamda axborot oqimini anglash, tanlash, tahlil qilish, baholash, yaratish va mas’uliyat bilan foydalanish metodlarini qo`llashga o`rgatish zarurati kuchayib

bormoqda. Maktabgacha ta’lim sohasi mutaxassisi uchun bu metodlar kasbiy hamda o`quv faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib xizmat qiladi.

O`zbekiston Respublikasi Prizidentining 2025-yil 16-sentabrdagi PQ-286-son “Respublikaning hudud, soha, va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora tadbirlari to`g`risida”[1] gi hamda 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasidagi ta`lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriyasi bilan integratsiya qilish chora tadbirlari to`g`risida”[2] gi Qarorlari hamda maskur faoliyatga tegishli boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlarda bir qator dolzarb vazifalarni belgilab berilishi maskur mavzuning naqadar ahamiyatli ekanligini tasdiqlaydi

Maktabgacha ta’lim tizimida pedagog kadrlar zamonaviy axborot muhitida samarali ishlashga tayyor bo‘lishi bilan lozim . Bu esa bugungi kunda bo‘lajak tarbiyachilar uchun metodik materiallar, qonuniy-me’yoriy hujjatlar, mashg‘ulot ishlanmalari, psixologik-pedagogik maslahatlar, ilg‘or xorijiy tajribalar va ijodiy topshiriqlarni bir tizimda jamlagan raqamli muhit yaratish ehtiyoji mavjud. Bunday muhit tarbiyachining kasbiy faoliyatda kerakli axborotni tez topishi, uning ishonchliligini baholashi, mazmunini tahlil qilishi va amaliyotga tatbiq etishini yengillashtiradi. Shu kabi dolzarb ehtiyojlarni hisobga olgan holda maktabgacha ta`lim yo`nalishi talabalari mediakompitentligini yani kerakli axborotlarni samarali izlashi, tanlashi, tahlil qila olishi, yarata olishi uchun raqamli-pedagogik metodlarni keng ko`lamda o`rganish hamda tahlil qilish zarurati tug`ildi.

Bugungi kunda maktabgacha ta`lim yo`nalishi talabalarining mediakompitentligini rivojlantirishda quyidagi raqamli-texnologik metodlardan foydalanish samarali natija olib keladi deb hisoblanadi.

Metodlar guruhi	**Amaliy ko‘rinishlari**
Axborot-tahliliy metodlar	Media matnni tahlil qilish, manba ishonchliligini tekshirish
Interaktiv metodlar	Onlayn munozara, forum, savol-javob, hamkorlikdagi topshiriqlar
Loyihaviy metodlar	Video, podkast, elektron taqdimot va raqamli didaktik material yaratish
Muammoli metodlar	Soxta axborot, media xavfsizligi va axborot manipulyatsiyasi bo‘yicha vaziyatlarni tahlil qilish
Refleksiv metodlar	Elektron portfolio, o‘z-o‘zini baholash va faoliyatni tahlil qilish
Gamifikatsion metodlar	Test, viktorina, interaktiv topshiriq va ta’limiy o‘yinlar

Axborot — ta’lim oluvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash, kerakli ma’lumotni izlash va tanlash, manba hamda mazmunni tekshirish, turli axborotlarni taqqoslash, dalillarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va axborotdan etik foydalanishiga yo‘naltirilgan pedagogik metodlar tizimidir. O`rganishlar jarayonida aniqlanishicha bu atama UNESCO hujjatlarida alohida bitta metod nomi sifatida emas, balki media va axborot savodxonligining muhim

[1] O`zbekiston Respublikasi Prizidentining Qarori 16.09.2025-yildagi PQ-286-son https://lex.uz/uz/docs/-7730357
[2] O`zbekiston Respublikasi Prizidentining Qarori 06.10.2020-yildagi PQ-4851-son https://lex.uz/docs/-5032128

kompetensiyalari majmui sifatida izohlanadi. UNESCOga ko‘ra, media va axborot savodxonligi axborotni **izlash, tushunish, tanqidiy baholash, undan foydalanish va yangi axborot yaratish** qobiliyatlarini qamrab oladi.[3] UNESCO, shuningdek, manbani baholashdan oldin axborot nima maqsadda kerakligini aniqlash lozimligini ta’kidlaydi. Chunki manbaning ishonchliligi umumiy tarzda emas, balki muayyan vazifa va kontekstga nisbatan baholanadi. Masalan talabalar talim jarayoniga foydalanadigan ilmiy malumotning olingan rasmiy manbasi yoki tarbiyachining bola uchun tanlagan metodikasining qaysi o`quv qo`llanmada mavjudligi yoki rasmiy tarzda bola uchun psixologik pedagogik jihatdan foydali ekanligini isbotlovchi jihatlari maqul bo`lishi mumkin. Shularni inobatga olib aytishimiz mumkinki, talabalar mediakompitentligini shakllantirishda axborot-tahliliy metodlar majmuasidan foydalanish eng muhim ko`rsatkich hisoblanadi

Axborot-tahliliy metodlar — bo‘lajak tarbiyachilarning axborot ehtiyojini aniqlash, raqamli va an’anaviy manbalardan zarur ma’lumotlarni izlash, ularning ishonchliligi, dolzarbligi, xolisligi va pedagogik qiymatini baholash, turli axborotlarni taqqoslash hamda asoslangan kasbiy-pedagogik xulosa chiqarish faoliyatini tashkil etishga yo‘naltirilgan metodlar majmuasidir.

Interaktiv metodlar — ta’lim oluvchilarni tayyor axborotni passiv qabul qiluvchi emas, balki savol beruvchi, fikr almashuvchi, muammoni birgalikda hal qiluvchi, dalil keltiruvchi va amaliy mahsulot yaratuvchi faol subyekt sifatida tashkil etadigan pedagogik metodlardir.

Agar biz interaktiv ta’limning markazini “o‘qituvchi — talaba” emas, balki **o‘qituvchi — talaba — axborot — raqamli muhit** o‘rtasidagi faol hamkorlik deb tushunsak, bunda o‘qituvchi yagona bilim manbai bo‘lib qolmaydi; u: muammoli vaziyat yaratadi, topshiriq va savollarni ishlab chiqadi, munozarani boshqaradi, talabalarni axborot manbalarini tanlashga yo‘naltiradi, talabalar faoliyatini kuzatadi hamda dalillangan fikr va refleksiyani rag‘batlantiradi. Unga javoban talabada axborotni mustaqil izlash, media mazmunini tahlil qilish, o‘z fikrini dalillar bilan asoslash, guruhda qaror qabul qilish, boshqa nuqtayi nazarlarni tinglash, o‘z faoliyatini baholash kabi qobiliyatlar shakllanadi. Shu jihatdan interaktiv metodlar mediakompetentlikning kognitiv, amaliy, kommunikativ va refleksiv tarkibiy qismlarini bir vaqtda rivojlantiradi.

Loyihaviy metod — ta’lim oluvchilarning real yoki o‘quv muammosini mustaqil yoki guruhda o‘rganishi, axborot to‘plashi, tahlil qilishi, amaliy mahsulot yaratishi va uni muayyan auditoriya oldida taqdim etishiga asoslangan ta’lim metodidir.

AQSh Ta’lim departamenti huzuridagi Institute of Education Sciences tizimiga qarashli REL Appalachia sharhida loyiha asosidagi ta’limning markazida loyiha turishi, talabalar esa bilimni tayyor holda qabul qilmasdan, faol ravishda qurishi qayd etilgan. Ya`ni bugungi talim tizimining talabi shuki, talaba tayyor axborotni o`zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan uni o`zi yarata olishi, qayta ishlay olishi ham kerak.

Maskur metod orqali talabalar bilan ishlaganda talaba faqat refarat yoki taqdimot yaratuvchi bo`lib qolmasligi kerak, balki u bir vaqtning o`zida mavjud muammoni yoki savolni ko`ra olish, izlanish va axborot yig‘ish, to`g`ri qaror qabul qilish, mahsulot yaratish, qayta ishlash, taqdimot

[3] UNESCO. *Media and Information Literacy Curriculum for Teachers and Learners*, “Understanding Media and Information Literacy” bo‘limi

qilish, refleksiya va baholash bosqichlarini bajara olishi muhim. Bu esa talabalarning mediakompitentligini rivojlantirishda nafaqat kognitiv, balki amaliy, kommunikativ, ijodiy va refleksiv komponentlarini ham rivojlantiradi.

Refleksiv metod — ta'lim oluvchining o‘z bilimlari, faoliyati, qarorlari, xatolari va erishgan natijalarini ongli ravishda tahlil qilishi, baholashi hamda keyingi faoliyatini takomillashtirish rejasini ishlab chiqishiga yo‘naltirilgan pedagogik metoddir. Bu metod oddiy "dars yoqdimi?" yoki "nimalarni bildingiz?" kabi umumiy savollar bilan cheklanmaydi. Ilmiy jihatdan to‘liq refleksiya uchta jarayonni qamrab oladi:

1. **Rejalashtirish** — vazifani qanday bajarishni oldindan belgilash.
2. **Monitoring** — faoliyat davomida o‘z ishini kuzatish va nazorat qilish.
3. **Baholash va tuzatish** — natijani tahlil qilish, xatolar sababini aniqlash va keyingi harakatni belgilash.

AQSh Ta'lim departamenti huzuridagi Regional Educational Laboratory Pacific materialida refleksiya samarali ta'limning zarur qismi sifatida ko‘rsatiladi. Ushbu manbaga ko‘ra, refleksiya faqat dars oxirida emas, balki o‘quv jarayoni davomida ham tashkil etilishi kerak. Talaba o‘z bilim va ko‘nikmalarini o‘quv maqsadlari yoki muvaffaqiyat mezonlari bilan taqqoslab borishi, nimani bilishi va nimalarni hali o‘zlashtirmaganini aniqlashi lozim.[4]

Bo‘lajak tarbiyachilar mediakompetentligini shakllantirishda refleksiv metod talabaning o‘z media faoliyatiga tanqidiy munosabatini rivojlantiradi. Talaba:

- axborotni qanday izlaganini;
- qaysi manbani nima sababdan tanlaganini;
- manbaning ishonchliligini qanday tekshirganini;
- yaratgan media mahsulotining pedagogik qiymatini;
- raqamli vositalardan foydalanishdagi xatolarini;
- kontentning bolalar yoshiga mosligini;
- mualliflik huquqi va raqamli xavfsizlikka rioya qilgan-qilmaganini tahlil qiladi.

Shu sababli refleksiv metod mediakompetentlikning, ayniqsa, **refleksiv-baholash, tanqidiy-tahliliy va mas'uliyatli foydalanish** komponentlarini rivojlantiradi.

Gamifikatsion metodlar — bo‘lajak tarbiyachilarning mediakompetentligini shakllantirish jarayoniga ball, bosqich, topshiriq, badge, progress, tezkor fikr-mulohaza va hamkorlikka asoslangan o‘yin elementlarini pedagogik maqsadga muvofiq ravishda kiritish orqali ularning motivatsiyasi, faol ishtiroki, media axborotni tahlil qilishi va raqamli mahsulot yaratishini qo‘llab-quvvatlovchi metodlar majmuasidir.

UNESCO SDG 4 Knowledge Hub'da joylashtirilgan o‘yinli ta'lim bo‘yicha amaliy loyihada o‘qituvchilar uchun uch modulli MOOC tashkil etilgan. Unda o‘yinli ta'lim nazariyasi, dars loyihalash, o‘yin yaratish, test, forum, o‘zaro baholash va refleksiya birlashtirilgan. Pilot natijalarida ishtirokchilarning 87 foizi gamifikatsiyani qo‘llashga bo‘lgan ishonchi oshganini, 80 foizi bir oy ichida kamida bitta o‘yinli darsni amaliyotga tatbiq etganini bildirgan. Biroq UNESCO ushbu material ma'lum bir loyiha doirasida taqdim etilgan amaliy "good practice" ekanini va undagi qarashlar UNESCOning rasmiy pozitsiyasini anglatmasligini alohida qayd

[4] https://ies.ed.gov/rel-pacific/2025/01/using-instructional-models-student-and-teacher-success-infographic

etadi.[5] AQSh Ta'lim departamenti huzuridagi What Works Clearinghouse gamifikatsiyalangan iPersonalize dasturini 1256 nafar 6-sinf o'quvchisi ishtirokidagi randomizatsiyalangan tadqiqot asosida ko'rib chiqqan. Tadqiqot dizayni ayrim cheklovlar bilan standartlarga javob bergan, biroq savodxonlik va yozuv sifati bo'yicha natijalar statistik jihatdan aniq ijobiy ta'sirni ko'rsatmagan va umumiy ta'sir "aniqlanmagan" deb baholangan.[6]

Bu dalillar muhim ilmiy xulosaga olib keladi: gamifikatsiya qiziqish va ishtirokni oshirishi mumkin, ammo uning o'zi bilim yoki mediakompetentlikning yuqori darajada shakllanishini kafolatlamaydi**.** Gamifikatsion metodlar bo'lajak tarbiyachilarning mediakompetentligini shakllantirishda samarali yordamchi metod bo'la oladi. Ular talabalarni media axborotini izlash, tekshirish, tahlil qilish va raqamli mahsulot yaratishga faol jalb qiladi. Biroq gamifikatsiyaning asosiy natijasi avvalo motivatsiya va ishtirokni kuchaytirish bilan bog'liq; bilim, tanqidiy tahlil va kasbiy kompetentlikning shakllanishi esa mazmunli topshiriq, ishonchli axborot, o'qituvchi rahbarligi, refleksiya va mezonli baholashga bog'liq.

Bo'lajak tarbiyachilarning mediakompetentligini shakllantirishda axborot-tahliliy, interaktiv, loyihaviy, refleksiv va gamifikatsion metodlarni alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'langan metodik tizim sifatida qo'llash maqsadga muvofiq. Chunki mediakompetentlik faqat axborot haqida bilimga ega bo'lishni emas, balki axborotni izlash, ishonchliligini tekshirish, tanqidiy tahlil qilish, undan etik foydalanish, media mahsuloti yaratish va o'z faoliyatini baholashni ham talab qiladi. Mazkur metodlar quyidagi mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etilganda eng katta metodik qiymatga ega bo'ladi: axborotni izlash va baholash → hamkorlikda muhokama qilish → amaliy media mahsuloti yaratish → refleksiv tahlil → motivatsion mustahkamlash.

Metod	**Asosiy vazifasi**	**Mediakompetentlikka qo'shadigan hissasi**
Axborot-tahliliy metodlar	Manbani izlash, tekshirish, taqqoslash va baholash	Tanqidiy fikrlash, faktcheking va axborot xavfsizligi
Interaktiv metodlar	Dialog, munozara va hamkorlikni tashkil etish	Fikrni asoslash, media xabarni muhokama qilish va kommunikativ kompetensiya
Loyihaviy metodlar	Muammo asosida raqamli mahsulot yaratish	Amaliy media faoliyati, ijodkorlik va kasbiy qo'llash
Refleksiv metodlar	O'z faoliyati va natijasini tahlil qilish	O'z-o'zini baholash, xatolarni aniqlash va takomillashtirish
Gamifikatsion metodlar	Qiziqish, faollik va bosqichma-bosqich ishtirokni qo'llab-quvvatlash	Motivatsiya, tezkor fikr-mulohaza va o'quv jarayonining davomiyligi

Xulosa qilib aytganda bo'lajak tarbiyachilarning mediakompetentligini shakllantirishda axborot-tahliliy, interaktiv, loyihaviy, refleksiv va gamifikatsion metodlarni integratsiyalashgan holda qo'llash samarali metodik yondashuvni tashkil etadi. Axborot-tahliliy metodlar talabalarda media va axborot manbalarini izlash, tekshirish, taqqoslash va tanqidiy baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi; interaktiv metodlar mazkur bilimlarni dialog, munozara va hamkorlikda qo'llash imkonini beradi; loyihaviy metodlar axborot-tahliliy faoliyatni amaliy raqamli media

[5] https://www.unesco.org/sdg4education2030/en/knowledge-hub/promoting-classroom-engagement-game-based-learning
[6] https://ies.ed.gov/ncee/wwc/study/89824

mahsulotiga aylantiradi; refleksiv metodlar talabalarning o‘z media-pedagogik faoliyatini rejalashtirish, monitoring qilish, baholash va takomillashtirishini ta’minlaydi; gamifikatsion metodlar esa ta’lim jarayonidagi qiziqish, ishtirok va bosqichma-bosqich rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq mazkur metodlarning samaradorligi ularning tashqi shakliga emas, balki aniq ta’limiy maqsadga yo‘naltirilganligi, ishonchli manbalar bilan ta’minlanganligi, o‘qituvchi rahbarligi, mezonli baholash, refleksiya, raqamli tenglik va etik xavfsizlik talablariga rioya qilinishiga bog‘liq. Shu sababli mazkur metodik tizim bo‘lajak tarbiyachilarning mediakompetentligini shakllantirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan pedagogik shart-sharoitlar, topshiriqlar va baholash mezonlari bilan birgalikda ishlab chiqilishi hamda tajriba-sinov asosida tekshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prizidentining Qarori 16.09.2025-yildagi PQ-286-son https://lex.uz/uz/docs/-7730357
2. O`zbekiston Respublikasi Prizidentining Qarori 06.10.2020-yildagi PQ- 4851-son https://lex.uz/docs/-5032128
3. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers and Learners, “Understanding Media and Information Literacy” bo‘limi
4. Ayupov, R. H., Tursunov, S. Q. Raqamli texnologiyalar: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, “Nodirabegim” nashriyoti, 2020. 377 b.
5. Rahimova X.U Media kompotentlik va media savodxonlik tushunchalarining ilmiy-pedagogik mohiyati mohiyati, tarkibi va rivojlanish tarix. Ilmiy maqola 2026. aprel, 4(4)-son
6. https://ies.ed.gov/rel-pacific/2025/01/using-instructional-models-student-and-teacher-success-infographic
7. https://www.unesco.org/sdg4education2030/en/knowledge-hub/promoting-classroom-engagement-game-based-learning
8. https://ies.ed.gov/ncee/wwc/study/89824